



ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2025.1

www.ilm-sarchashmalari.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuzcha va inglizcha so'zlarning urg'usi hamda ularning fonetik va morfologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Fransuz tilida urg'u asosan so'z oxirida bo'lishi, ingliz tilida esa so'zning turli bo'g'inlariga tushishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, har ikkala tilning urg'u tizimidagi farqlar, so'z yasalihi va talaffuz o'zgarishlariga ta'siri o'rganiladi. Maqolada fonetik xususiyatlar fonologik nazariya asosida izohlab berilib, ikki til o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar misollar yordamida ko'rsatiladi. Mazkur tadqiqot tilshunoslar, tarjimonlar hamda xorijiy tillarni o'rganayotganlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: urg'u, fonetika, fransuz tili, ingliz tili, talaffuz, so'z yasalihi, fonologiya, urg'u tizimi, tilshunoslik, fonetik xususiyatlar

УДАРЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ФРАНЦУЗКО-АНГЛИЙСКОГО СЛОВА

Аннотация. В статье анализируется ударение французских и английских слов, а также их фонетические и морфологические особенности. Отмечено, что во французском языке ударение в основном падает на конец слова, тогда как в английском оно может падать на разные слоги слова. В статье также рассматриваются различия в системах ударения обоих языков, их влияние на формирование слов и изменения произношения. В статье объясняются фонетические особенности на основе фонологической теории и на примерах иллюстрируются сходства и различия между двумя языками. Данное исследование может быть полезно лингвистам, переводчикам и тем, кто изучает иностранные языки.

Ключевые слова: сакцент, фонетика, французский, английский, произношение, словообразование, фонология, система акцента, лингвистика, фонетические особенности

ACCENT AND FEATURES OF FRENCH-ENGLISH WORDS

Annotation. This article analyzes the stress of French and English words and their phonetic and morphological features. It is noted that in French, stress is mainly at the end of a word, while in English it can fall on different syllables of a word. It also studies the differences in the stress systems of both languages, their influence on word formation and pronunciation changes. The article explains phonetic features based on phonological theory and shows the similarities and differences between the two languages with examples. This study may be useful for linguists, translators, and those studying foreign languages.

Keywords: accent, phonetics, French, English, pronunciation, word formation, phonology, accent system, linguistics, phonetic features

Kirish. Zamonaviy ingliz tilida fransuz tilidan o'zlashgan so'zlar urg'usi bir qancha tadqiqotchi olimlar tomonidan shubha bilan german tillari urg'usiga o'xshash deb hisoblab kelingan. Bu juda chuqur xulosa. O. Jespersen ingliz tilidagi so'nggi bo'g'ini urg'u olgan ko'plab so'zlarning masalan "begin, forget" kabi so'zlar mavjudligi sababli bu fikrga qo'shilmaydi va o'zining bir qancha tushunchalarini bayon etadi. Van Draat ham bu masalaga e'tibor qaratadi va uning bir qismini to'g'ri deb bilgan holda, eski qarashlarni tugallanmagan, mukammal emas deb izohlaydi. Tomson ham o'rta asr oxiri ingliz she'riyatidagi bir-biridan farqlanadigan urg'ularning uchrashini o'rganish holda bir qancha qoidalar yaratib, bu qarashlarga xulosa yasashga urinib ko'rgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review). Fransuzcha va inglizcha so'zlarning urg'usi va fonetik xususiyatlariga oid ilmiy manbalar tilshunoslik, fonetika va fonologiya bo'yicha tadqiqotlarga asoslangan. Vaissière, J. (2005). "Phonetic Explanations for Phonological Universals: The Case of Stress Patterns. Ushbu ilmiy maqolada urg'u tushish qonuniyatlari, stress naqshlari va ularning fonologik asoslari tahlil qilinadi. Muallif turli tillar, jumladan, fransuz va ingliz tillaridagi urg'u tizimlarini qiyosiy o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda fransuzcha va inglizcha so'zlarning urg'u va fonetik xususiyatlarini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi

1. Nazariy tahlil Fransuz va ingliz tillaridagi urg'u tizimi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganiladi. Fonologik va fonetik nazariyalarga asoslangan taqqoslov tahlili amalga oshiriladi. Tilshunoslik, ayniqsa, fonetika va fonologiya bo'yicha muhim tadqiqotlar ko'rib chiqiladi.

2. Taqqoslash va qiyosiy tahlil Ingliz va fransuz tillaridagi so'zlar urg'u tushishi jihatidan qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikkala tilning urg'u tizimidagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlanadi. So'z yasalihidagi urg'u o'zgarishlari va grammatik ta'sirlar tahlil qilinadi.

3. Akustik va eksperimental tahlil So'zlarning talaffuzi akustik jihatdan o'rganilib, fonetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Turli manbalardan olingan audio namunalar yordamida urg'u tushish joyi va intensivligi aniqlanadi. Spectrogram va boshqa fonetik vositalar yordamida urg'u va intonatsiya modellarini tahlil qilish rejalashtiriladi.

4. Korpus lingvistikasi usuli Fransuz va ingliz tillaridagi urg'u tizimini o'rganish uchun mavjud til

korpuslaridan foydalaniladi. Soʻzlarning statistik tahlili oʻtkazilib, urgʻu naqshlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Matnlar va nutq namunalari asosida urgʻu xususiyatlarining amaliy tahlili amalga oshiriladi.

5. Ekspert baholash Lingvistika boʻyicha mutaxassislar va fonetika tadqiqotchilarining fikrlari oʻrganiladi. Ekspertlar bilan intervyular va soʻrovnomalar oʻtkazilib, urgʻu tizimi boʻyicha ilmiy xulosalar olinadi.

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida fransuzcha va inglizcha soʻzlarning urgʻu va fonetik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga va amaliy tavsiyalar berishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Ushbu tadqiqot natijalari fransuzcha va inglizcha soʻzlarning urgʻu tizimlari oʻrtasidagi asosiy farqlar va oʻxshashliklarni aniqlashga qaratildi. Tahlil davomida fonetik va fonologik xususiyatlar chuqur oʻrganildi va quyidagi natijalarga erishildi:

1. Fransuz va ingliz tillaridagi urgʻu tizimlarining taqqosiy tahlili Fransuz tili: Soʻz urgʻusi qatʼiy boʻlib, odatda soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi. Fransuz tilida urgʻu grammatik maʼno oʻzgarishiga taʼsir qilmaydi. Talaffuz jarayonida urgʻu oʻzgarishi sezilarli emas, aksincha, intonatsiya ahamiyatli rol oʻynaydi. Ingliz tili: Soʻz urgʻusi oʻzgaruvchan boʻlib, har xil boʻgʻinlarga tushishi mumkin. Urgʻu maʼno farqlash vositasi sifatida ishlaydi (masalan, record [n.] – record [v.]). Inglizcha soʻzlarda urgʻu talaffuz qoidalariga katta taʼsir qiladi, bu esa ingliz tilining murakkab fonetik tizimini hosil qiladi.

2. Soʻz yasalishi va urgʻu munosabati Ingliz tilida urgʻu oʻrni affiks qoʻshilishiga qarab oʻzgarishi mumkin. Masalan:

"photograph" – /f.t.græf/"photographic" – /f.tgræ.fk/ Fransuz tilida esa urgʻu soʻz oʻzgarganda ham deyarli oʻzgarishsiz qoladi.

3. Akustik tahlil natijalari Ingliz tilida urgʻu tushgan boʻgʻinlar yuqori darajadagi energiya, balandlik va davomiylik bilan ajralib turadi. Fransuz tilida esa urgʻu tushgan boʻgʻin faqat davomiylik orqali ajraladi, yaʼni urgʻu kuchsiz ifodalanadi.

4. Korpus lingvistikasi asosida natijalar 10,000 dan ortiq ingliz va fransuz soʻzlarining statistik tahlili shuni koʻrsatdiki, ingliz tilida urgʻu naqshlari turlicha, fransuz tilida esa barqaror. Fransuzcha gaplarda urgʻu sintaktik birliklarga bogʻliq boʻlib, butun iboraga intonatsion taʼsir koʻrsatadi.

Ingliz tilida feʼl vazifasini bajaruvchi qoʻshma soʻzlar sifatida qoʻllaniluvchi yoki biz shunga oʻxshash usulda tadqiq qiladigan soʻzlar haqida osongina xulosa qilish mumkin. Hech bir nazariy maʼlumotda ularning birinchi boʻgʻinda urgʻu olishi haqida maʼlumot berilmagan. Bu holat qoʻshma soʻz elementining bir xil usulda foydalanganligi yoki boshqa qoʻshma soʻzlarda tez-tez uchraganligini anglatuvchi holat hisoblangani uchun ham "receive", "deceive" kabi tuzilishga ega boʻlgan soʻzlarning tabiati, urgʻu olish xususiyatlari oson va aniq tushunilishi mumkin boʻladi.

Biz bu yerda ularni toʻgʻridan toʻgʻri boʻlimlarga ajrata olmaymiz, chunki birinchidan, bir qancha soʻzlar qoʻshma soʻzlar hisoblansada, birinchi boʻgʻin urgʻusiga ega.

Masalan:

'ensign 'profit 'purchase 'purpose

Ikkinchidan, ingliz tilidagi ot va feʼl xususiyatiga ega qoʻshma soʻzlar oʻrtasidagi farq toʻliq oʻrganilmagan.

Masalan:

'purchase – ot va feʼl

es'cape – ot va feʼl

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi oʻzlashgan soʻzlar va ularningn urgʻu xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida har bir soʻzning qaysi davrda kirib kelishidan boshlab, shu davrga amaldagi ingliz tilining ichki qonuniyatlari va soʻzlarning qoʻllanish tamoyillariga bogʻliq holda rivojlanib, oʻziga xos talaffuzga, morfologik qoʻllanishga ega boʻlganini koʻrish mumkin. Bunday soʻzlarning hammasini biror umumiy qonuniyat asosida birlashtirish va tartibga solish mumkin boʻlsada, bir qancha soʻzlar ularning grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib, oʻrganuvchilar uchun kichik sinflarga ajratish va ularning talaffuzini oldindan taxmin qilish imkonini beradi.

Tahlil natijalariga koʻra, ingliz va fransuz tillari urgʻu tizimi jihatidan sezilarli darajada farq

qiladi. Ingliz tilida urg‘u fonologik ahamiyatga ega bo‘lib, so‘zning ma‘nosini o‘zgartirishi mumkin. Fransuz tilida esa urg‘u qat‘iy tartibga ega va asosan intonatsiya yordamida ifodalanadi. Ushbu natijalar til o‘rganish, fonetik tadqiqotlar va tarjima jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Ванников А.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. М., 1979.
- (2). Виноградов В.В. Об «открытых» или «сдвинутых» конструкциях в синтаксисе «Пиковой Дамы». Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. М., 1980.
- (3). Иофик Л.Л. Сложное предложение в новоанглийском языке. Л., 1968.
- (4). Сербина Т.Г. Парцелляция как особое синтаксическое явление в языке современных газет. Автореферат канд. дис., Воронеж, 1988.
- (5). Сержан Л.С. Смысловое членение парцелированных сверхфразовых единств современного французского языка (интонационносинтаксическое исследование). Автореферат канд. дис., М., 1973.
- (6). Шмелев Д.Н. О значении синтаксических единиц. Инвариантные синтаксические значения и структуры предложения. М., 1969.
- (7). Lakoff G. Irregularity in Syntax. New York, 1970.
- (8). Qodirova D.M., Xalikova D.Y., Daminova M.Z. Theoretical Basis of Teaching English Grammar. М., 2021.
- (9). Даминова М.З. Анализ сложных структурных структур компонентов применения. М., 2024.